



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Mamayev
Bahodirjon
Nosirovich**

AIQI, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası mudiri, dotsenti, i.f.n.

**Abdug'ofurov
Xislatullo Xayrullo
o'g'li**

*AIQI, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası assistenti
Tel:998977598865*

Annotatsiya

Ushbu maqolada bank xizmatlari bozorini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy masalalaridan biri ekanligi, ayniqsa butun dunyo bo'ylab hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham yaqqol yuzaga chiqdi.

Kalit so'zlar:

bank, bank xizmatlari, bozor, internet tarmog'i, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, tadqiqot, omonotlar, sifatli xizmat, raqobat, kredit, foyda, likvidlilik

KIRISH

Bugun «raqamli iqtisodiyot» degan tushuncha dunyoda eng dolzarb masalaga aylanganini barchamiz ko'rib turibmiz. Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Barchamiz bu masalani chuqur anglagan holda, shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart¹.

Yildan yilga internet tarmog'i va suniy intellektni rivojlanib borishi bilan dunyo bo'ylab raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va raqamli banklar xam rivojlanib bormoqda. Yangi bank tizimini yevalyutsion bosqichlarida nafaqat bank xizmatlari balkim butun bank va moliya tizimiga katta o'zgarishlar bo'lishiga tasir ko'rsatmoqda. 2021 yil tadqiqotlarga ko'ra butun jahondagi 250 dan ortiq raqamli banklar mavjut bo'lib, shu banklardan oltita raqamli bank dunyo bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

¹ 30.09.2020 yildagi Shavkat Mirziyoyevning tantanali marosimdagi nutqlari <https://xabar.uz/uz/jamiat/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning>

Jumladan, Buyuk Britaniyaning OAKN North Bank va Starling Banki, Rossiya Federatsiyasining Tinkoffbanki, Xitoyning Albank, Mybank, Webank, XWbanki, Yaponiyaning, Jibut Bank, PayPay Bank, Rakuten Bank, Sony Banki, Janubiy Koreaning Kakao Banki, Hindistonning Paytm Payments Banki hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga moljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60 sonli farmonlarini 25-maqсадida raqamli iqtisodiyotni real sektorida xamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish ko'zda tutilgan².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaror va farmonlariga asosan tijorat banklarni bosqichma-bosqich raqamlashtirish, raqamli bank xizmatlarini joriy qilish va diversifikatsiyalash boyicha chora tadbirlaridan asosiy maqsad masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish, masofadan turib omonatlarni jalb qilish va kreditlarni yo'lga qoyish, jahon andozalariga mos ravishda banklarni raqamlashtirishda jahon banklari tajribalaridan foydalangan xolda raqamli banklarni raqobatbardoshligini oshirish ko'zda tutilgan.

Jahon moliya-bank tizimida birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotning elektron to'lov tizimlari, kriptovalyutalar va vositachilarsiz kreditlash kabi elementlar bozoridagi ulushning shiddatli o'sishi bilan bog'liq bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hozirgi kunda o'zining ofislari va bankomatlariga ega bo'lmagan raqamli banklar va moliyaviy muassasalar sonining jadal sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmoqda. Raqamli banklarning (digital banking) asosiy konsepsiyalari qatoriga mijozlarga yo'naltirilganlik, kontsepsiyasiga o'tishi, CRM (Customer Relationship Management)ning rivojlanishi, mijozlarga bo'lgan ishonchining o'sishi, takliflarni shaxsiylashtirish va harakatchanlik hususiyati kiradi. Raqamli banklar hizmatlari zamonaviy insonlarning hayot faoliyatining barcha sohalariga, birinchi navbatda, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot servislari, elektron tijorat, internet-savdo va boshqalarga kirib borishda kuzatiladi. Raqamli bank o'z mijozlariga raqamli kanallardan foydalangan holda turli xildagi raqamli ko'rinishdagi mahsulot va hizmatlarni taklif qiladi. Bunday bank infratuzilmasi raqamli kommunikatsiyalar uchun optimallashtirilgan bo'lib, hozircha raqamli texnologiyalarning tez almashinuviga unchalik tayyor emas. Bunday banklarning asosiy vazifalari qatoriga mijozning hisobraqamlari holati va amalga oshirigan operatsiyalar haqida uni tezkorlik bilan habardor qilish, uning uchun eng yaqin bo'lgan bank bo'linmasi, bankomat, almashinuv punkti yoki avtokiosk izlab topish kiradi. Bundan tashqari, raqamli bank o'z mijozlariga shunday onlayn-servis taqdim etishi lozimki, ubarcha platformalarda ishlay olsin va o'z faoliyatini asosan mobil qurilmalarga yo'naltirilsin. Raqamli banklarning modelini takomillashtirishning yettita asosiy mexanizimini ko'rib chiqamiz:³

- ✓ Foydalanuvchilar servislarni soddalashtirish;
- ✓ Axborotni boshqarishning yangi usullari va vositalarini ishlab chiqish;
- ✓ Ochiq API tizimidan foydalanish;
- ✓ Moliyaviy-texnik kompaniyalari bilan hamkorlik va raqobat;

Manba: ¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi

² Boston Consulting group analitiklari Digital Banking Asian parafic tahlili taqrizchilar: [Jungkiu Choi](#), [Yashraj Erande](#), Yang Yu <https://www.bcg.com/publications/2021/digital-banking-asia-pacific>

- ✓ Mobil to'lovlarning rivojlanishi;
- ✓ Banking sohasidagi innovatsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- ✓ Faoliyatni innovatsion tartibga solishni amalga oshirish.

Raqamli xizmat ko'rsatishga to'la-to'kis o'tish nafaqat banklarga, balki xilma-xil bank xizmatlaridan tezkor va qulay tarzda foydalana oladigan iste'molchilarga ham foyda keltiradi (masalan, harajatlarning pasayishi, muloqot doirasini qamrab olish imkoniyati, moslashuvchanlik, mijozni yaxshiroq bilish). Respublika bank tizimida zamonaviy AKT dasturiy-texnik vositalariga asoslangan innovatsion texnologiyalar faol joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markabiy bank Boshqarmasining bank tizimi faoliyati yakunlari bo'yicha kengaytirilgan majlisida qayd etilishicha, moliya xizmatlari strukturasi bank xizmatlarining ulushi 88%ni tashkil qilgan va oldingi yillar bilan taqqoslaganda 1,2 baravarga o'sgan.

Shunga ko'ra O'zbekistonda birinchi raqamli bank Anorbank tashkil qilingan. Bankning 2022 yil strategiyasida Mamlakat aholisi yanada mobilroq bo'lib qoldi, raqamli texnologiyalardan foydalanishni va ko'pgina xizmatlarni masofadan va dunyoning istalgan nuqtasidan sutka davomida olishni afzal ko'radi. Shaharda bizning odatiy bo'limlarimiz yo'q, biz mamlakat bo'ylab millionlab qurilmalarda erishimlimiz.

ANORBANK rivojlanish strategiyasining asosi har bir mijozga individual yondashuvni saqlab qolib malumotlarga ishlov berishda xafsizlikni saqlab qolish. Bank xodimlari amal qiladigan asosiy sabablardan

- ✓ Birinchi- online servisni 2020-yilda ishga tushurilganligi.
- ✓ Bankning yagona shtab kvartirasi Toshkentda joylashgan va sutkalik aloqa markazlari ishlaydi.
- ✓ Yondashuvning soddaligi- bu boshidanoq biz tarqatishga qaror qilgan narsa. Biz odamlarga hayotda ham, biznesda ham bir qadam oldinda bo'lish imkonini bermoqchimiz.

Har qanday operatsiyalarni tun u kun bajarishi, faqat internetga kirish uchun trafik va mobil qurilma yoki planshet bolsa bas. Barcha to'lovlar tushunarli va shaffof. To'liq tarixni va bo'lajak to'lovlarni jadvalini har doim mobil ilovada ko'rish mumkin.

Mamlakitimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish barcha banklar tomonidan doimiy ravishda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Anu shu choratadbirlar samarasi o'laroq, 2022 yil 1 yanvar holatiga xizmatdan foydalanuvchilar umumiy soni 10 mln. dan ortgan (jadval)

jadval

2022 yil 1 yanvar holatiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining banklar o'rtasida taqsimlanishi.

Bank	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jismoniy shaxslar	Jami
"Agrobank" ATB	154 952	2 483 768	3 325 935
"Ipoteka-bank" ATIB	133 804	1 846 664	1 980 468
ChEKI "Hamkorbank" ATB	96 519	1 244 389	1 340 908

2-sho'ba. Biznesni qo'llab-quvvatlash jarayonlarida boshqaruv va marketing usullaridan samarali foydalanish

TIF Milliy banki	77171	1 333 805	1 410 976
AT Xalq banki	63 364	2 988 799	3 052 163
"Mikrokreditbank" ATB	51 963	728 334	780 297
"O'zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB	48 963	2 698 356	2 747 319
"Ipak Yo'li" AITB	38 863	1 026 332	1 065 195
"Kapitalbank" ATB	36 472	343 775	380 247
"Asaka" ATB	34 154	911 019	945 173
"Trastbank" XAB	33 514	169 041	202 555
"Turonbank" ATB	28 756	239 970	268 726
ATB "Qishloq qurilish banki"	24 834	366 370	391 204
"Orient Finans" XATB	24 299	352 303	376 602
ChEKI "Invest Finance Bank" ATB	24 103	361 599	385 702
"Davir-Bank" XATB	23 590	92 752	116 342
AT "Aloqabank"	22 898	514 531	537 429
"Asia Alliance Bank" ATB	14 365	238 912	253 277
ChEKI "Savdogar" ATB	8 591	80 803	89 394
"Universal bank" ATB	8 156	96 990	105 146
Anor bank	5 652	580 429	586 081
"Turkiston" XATB	3 683	15 509	19 192
"Ziraat Bank Uzbekistan" AJ	2 448	33 137	35 585
"Ravnaqbank" XATB	2 247	45 074	47 321
"Hi-Tech Bank" XATB	1 622	22 198	23 820
"Madad Invest Bank" ATB	895	2 527	3 422
"KDB Bank O'zbekiston" AJ	884	36 641	37525
"Poytaxt bank" AJ	824	4 866	5 690
"Tenge bank" ATB	713	11 575	12 288
Eron "Soderot" sho'ba banki	219	1 738	1 957
"O'zagroeksportbank" ATB	62	1 273	1 335
TBC bank	0	361 325	361 325
Jami:	968 580	19 234 804	20 203 384

Xulosa

Boston Consulting groupning analitiklarini ma'lumotlarida ko'rinib turibdiki biz O'zbekistonda raqamli bank o'chdik deb qolib ketaverish kerak emas ma'lumotlarda 250 tadan ortiq raqamli bank borligi va ulardan 13 tasi foydaga kirganligini qolganlari xali xararda ekanini aytib o'tishdi. Bizning raqamli bankimiz xam qolgan banklar singari zararda qolmasligi uchun yangi yangi g'oyalar, rivojlangan raqamli banklarni strategiyalaridan foydalanish, yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash,

Mijozni talabini o'rganish imkoniyati bolsa amaliyotda qollash, rivojlanish uchun mijozlarga aksiyalar tashkil qilish va boshqalar

Rasimlar va jadvallarda ko'rinib turibdiki Osiyo tinch okeani mintasida joylashga foydaga kirgan 13 ta raqamli banklarning xam xammasi o'z kuchi bilan turmaganligi

faqat Buyuk Britaniyadagi Starling bank va OAKNorth bank, Rossiya Federatsiyasida Tinkoffbanki o'z kuchi bilan oyoqqa turgan raqamli banklar qatoriga kiradi qolgan 10 tasi esa turli korporatsiyalar, maxalliy banklar, global banklar, telekommunikatsion kompaniyalar, electron to'lov tizimlari orqali foydaga kirgan xisoblanadi. Boston Consulting grouping malumotlarida aktivlardan qanday foydalanish, raqamli banklarni tashkil etish va xizmatlarini kengaytirish, bankning o'sish sur'atini vaqt davomida saqlab qolish, Malumotlarni qabul qilish va risklarni tahlil qilish xaqida keng yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amaga oshirish chora tadbirlari xaqidagi farmonlari.

2. O'zbekiston Respublikasida Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296 sonli Markaziy Bankning faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonlariga muvofiq 2018-yil 31-iyuldagi Markaziy Bankning "Raqamli bank" atamasini qoninchilikka kiritish boyicha 2014-13 raqamli boshqaruv qarori.

3. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 217-219.

4. Кучкаров, Ш., & Шеров, А. Б. (2022). СЕМЕЙНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(1), 154-157.

5. Yusupov, N. S. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA LOYIXAVIY BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. PEDAGOGS, 59(1), 202-207.

6. Алматаев Т. О., Давидова Д. Т., Султанов А. А. ПУТИ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕГРАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Universum: технические науки. – 2023. – №. 9-2 (114). – С. 38-41.

7. Давидова Д. Т. СУҒУРТАДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕЗОHLАРИ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 56-62.

8. Mamayev B.N. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA RAQAMLI MARKETING ELEMENTIDAN BIRI INTERNET-REKLAMADAN FOYDALANISHNING TENDENSIYALARI Vol. 1 No. 8 (2022): O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI /

Internet rusurslar

www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

www.cbu.uz Markaziy bankning rasmiy saytidagi malumotlar.

www.bankers.uz Sayti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar.

www.Anorbank.uz "Anor bank" AJning rasmiy sayti.

www.tbcbank.uz - "TBC bank" ning rasmiy saytidagi malumotlar.